RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVASHNING ILMIY-AMALIY MODELI (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI	1310
Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATIONS INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
Usmanova Zumrad Islamovna	
"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQARADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	1396
Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O'ZGARISHLARI	1400
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	1405
Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA	1410
Sevunov Turg'unbek Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI "ZARCHOB" GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	1414
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА	1418
С.А. Исхакова	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA MA'SULIYATLI ISTE'MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1424
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI.....	1433
Sapayeva Nilufar Qadamboyevna	
AGROSANOAT KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH MODELLARI	1441
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
MINTAQADA ENERGIYA TA'MINOTI TIZIMLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI	1449
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH	1458
Tillayeva Barno Ramizitdinovna	
TO'G'RI SOLIQLARNING XORIJ TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLILI.....	1463
Ergashov Jamshid Ashurovich	
DAVLAT BUDJETIDAN "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	1471
Umarov Umid Panjiyevich	
XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION RESURLARNI INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRISH MEXANIZMLARI	1476
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1483
Uluxxo'jayeva Umida Abdullayevna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI REYTING TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY BOSHQARUV AMALIYOTI	1488
Xudoyqulov Husen Ahadovich	
SOLIQLAR BUDJET DAROMADLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILI	1495
P.SH.Usmonov	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV VA INVESTITSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1499
B.Q. Madartov	
SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH CHORALARINING JORIY ETILISHI VA ERISHILADIGAN NATIJALAR TAHLILI.....	1502
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	1507
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
DETERMINANTS OF FINANCIAL MARKET PARTICIPANT EFFICIENCY IN AN INNOVATION-DRIVEN ECONOMY.....	1512
Khotamkulova Madina	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	1517
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ENERGETIKA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR.....	1522
Saidov Mash'al Samadovich	
SANOAT TARMOQLARIDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1530
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	1537
Qobilov Anvar Eshpo'latovich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1542
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
"YASHIL IQTISODIYOT" DOIRASIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MINTAQALAR IJTIMOYIY RIVOJLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLASH	1546
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
JAHON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYANING AHAMIYATI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	1552
Muxammedova Zarina Murodovna	
ОСОБЕННОСТИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ КОРРЕКТИРОВОК В СТРАНАХ ПЕРЕХОДНОЙ ЭКОНОМИКИ	1556
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT XIZMATLARI RAQOBATDOSHIGINI TA'MINLASHNING TUSHUNCHAVIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1562
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ	1568
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
MEHNAT UNUMDORLIGI, ISHLAB CHIQRISH VA BANDLIK INTEGRATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1573
Muxammedov Murod Muxamedovich	



MEHNAT UNUMDORLIGI, ISHLAB CHIQRARISH VA BANDLIK INTEGRATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Muxammedov Murod Muxamedovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori i.f.d.

Annotatsiya. Maqolada mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Mehnat unumdorligining ortishi ishlab chiqarish hajmi kengayishiga va bandlik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritiladi. Maqolada ushbu omillarning iqtisodiy o'sish va aholi farovonligiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish, bandlik, iqtisodiy o'sish, samaradorlik, mehnat bozori, ish o'rinlari, resurslardan foydalanish, innovatsiyalar, modernizatsiya.

Abstract. This article analyzes the interrelationship between labor productivity, production, and employment, as well as their role in improving economic efficiency. The study provides a scientific justification of how increases in labor productivity affect the expansion of production volume and employment levels. It also examines the issues of innovation implementation, production modernization, and efficient use of labor resources. The article highlights the impact of these factors on economic growth and the improvement of public welfare.

Key words: labor productivity, production, employment, economic efficiency, economic growth, innovation, modernization, labor resources, public welfare.

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь между производительностью труда, производством и занятостью, а также их роль в повышении экономической эффективности. Научно обосновано влияние роста производительности труда на расширение объемов производства и уровень занятости. Кроме того, рассмотрены вопросы внедрения инноваций, модернизации производства и эффективного использования трудовых ресурсов. В статье раскрывается влияние данных факторов на экономический рост и повышение благосостояния населения.

Ключевые слова: производительность труда, производство, занятость, экономическая эффективность, экономический рост, инновации, модернизация, трудовые ресурсы, благосостояние населения.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasiga bog'liq. Ushbu omillar nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilaydi, balki jamiyat farovonligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, cheklangan resurslardan samarali foydalanish sharoitida mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [1].

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u bir birlik vaqt ichida yaratilgan mahsulot yoki xizmat hajmi bilan belgilanadi. Uning oshishi korxonalar faoliyatining natijadorligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining kengayishi yangi ish o'rinlarini yaratish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, bu esa bandlik darajasining ortishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari mehnat unumdorligining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bunday o'zgarishlar mehnat bozorida yangi talab va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, yuqori malakali



mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib borar ekan, bu kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish zaruratini kuchaytiradi [2]. Shu sababli, ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bandlik masalasi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi nafaqat daromadlar o'sishiga, balki kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, samarali ish o'rinlarini yaratish hamda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlar ushbu omillarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida baholaydilar. Jumladan, Samuelson va Nordhaus o'z tadqiqotlarida mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashini ta'kidlaydilar [3]. Mualliflarning ushbu yondashuvi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Keynes esa bandlik masalasiga alohida e'tibor qaratib, iqtisodiyotda umumiy talab darajasi ish bilan bandlikni belgilovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatadi [4]. Uning fikricha, davlatning faol iqtisodiy siyosati orqali bandlikni samarali tartibga solish mumkin. Ushbu qarash hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida bandlikni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, Keynesning yondashuvi qisqa muddatli muammolarni hal etishda samarali bo'lsa-da, uzoq muddatli rivojlanishda mehnat unumdorligi omilini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Jahon banki hisobotlarida mehnat unumdorligi iqtisodiy o'sishning eng muhim manbalaridan biri sifatida qayd etiladi [5]. Shu bilan birga, Xalqaro mehnat tashkiloti bandlikning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham oshirilishi iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishini ta'kidlaydi [2]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, ish o'rinlarini yaratish bilan bir qatorda ularning samaradorligini oshirish ham muhim ekanligi ko'rinadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omil ekanligi ta'kidlanadi [6]. Ularning fikricha, aynan shu yo'nalishlar orqali bandlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Bizningcha, ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlash mumkin, chunki milliy iqtisodiyot sharoitida ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish maqsadida turli ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv asosida iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va ularning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat unumdorligi iqtisodiy tizimning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, u ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi. Mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [8]. Biroq, mehnat resurslaridan yetarli darajada samarali foydalanilmagan holatlarda bandlikning o'sishi har doim ham iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib kelmasligi mumkin [9].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmining ortishi ko'pincha yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida ishlab chiqarishning kengayishi bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yuqori mehnat unumdorligi korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, tannarxni kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi [8]. Natijada korxonalar ichki va tashqi bozorlarda o'z mavqeini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mehnat unumdorligini oshirishda texnologik taraqqiyot, inson kapitali va samarali boshqaruv tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega [9]. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi va vaqt sarfi qisqaradi [10]. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish mehnat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Boshqaruv samaradorligi esa resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.



Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlar mehnat bozorida yangi kasblar va zamonaviy kompetensiyalarga ehtiyojni kuchaytiradi. Xususan, IT, muhandislik, logistika va ma'lumotlarni tahlil qilish sohalarida malakali mutaxassislar talab ortib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishni talab etadi (1-jadval).

1-jadval. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri¹

Omillar	Ta'sir mexanizmi	Yakuniy natija
Texnologiya	Avtomatlashtirish, innovatsiya	Ishlab chiqarish hajmi ortadi
Inson kapitali	Ta'lim, malaka oshirish	Ish sifati yaxshilanadi
Boshqaruv	Samarali tashkil etish	Resurslar tejiladi
Raqamli iqtisodiyot	Axborot texnologiyalari	Qaror qabul qilish tezlashadi
Infratuzilma	Logistika va kommunikatsiya	Uzluksiz ishlab chiqarish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi va ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, texnologik rivojlanish va inson kapitalining o'sishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy omillar hisoblanadi [10]. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining takomillashuvi resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi va umumiy iqtisodiy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [8].

Ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi integratsiya iqtisodiy tizimda muhim o'rin tutadi. Resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarish hajmini oshiradi va mehnat bozori orqali bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi [11]. Bu jarayonda mehnat bozori talab va taklifni muvofiqlashtiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [8].

Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion rivojlanish ustuvor ahamiyatga ega [10]. Innovatsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etishga, mehnat unumdorligini oshirishga va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi [10]. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin [1] (2-jadval).

2-jadval. Ishlab chiqarish, bandlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili²

Ko'rsatkich	O'zgarish holati	Ta'siri
Mehnat unumdorligi	Oshsa	Ishlab chiqarish hajmi ortadi
Ishlab chiqarish	Oshsa	Yangi ish o'rinlari yaratiladi
Bandlik	Oshsa	Daromad va talab ortadi
Malakali kadrlar	Oshsa	Sifat va unumdorlik oshadi
Texnologiya	Rivojlansa	Samaradorlik oshadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjud [7]. Ushbu ko'rsatkichlardan birining o'zgarishi boshqalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, bu esa yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi. Natijada aholi daromadlari oshib, ichki talab kuchayadi va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi [8].

Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonida qator muammolar mavjud. Jumladan, malakali kadrlar yetishmasligi, texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi, norasmiy bandlik va resurslardan samarasiz foydalanish iqtisodiy o'sishni cheklaydi [12] (3-jadval).

3-jadval. Iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi omillar³

Muammo	Sabablari	Oqibatlari
Past malaka	Ta'lim sifati pastligi	Past unumdorlik
Eski texnologiya	Innovatsiya yetishmasligi	Past ishlab chiqarish
Norasmiy bandlik	Nazorat yetarli emas	Soliq tushumlari kamayadi
Boshqaruv muammolari	Samarasiz menejment	Resurslar yo'qotiladi

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi muammolar o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi [12]. Xususan, past malaka darajasi mehnat unumdorligining pasayishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy faollik susayadi va aholi daromadlari qisqaradi.

Shuningdek, eski texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini pasaytiradi hamda mahsulotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [10]. Norasmiy bandlik esa davlat byudjetiga tushumlarni kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning uyg'unlashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va aholi daromadlarining ortishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida malakali kadrlar salohiyatini rivojlantirish zarurati, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish ehtiyoji, norasmiy bandlikni qisqartirish imkoniyatlari hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari namoyon bo'ladi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mehnat unumdorligini barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni ta'lim tizimini takomillashtirish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish orqali malakali kadrlar ulushini oshirish lozim.

Bundan tashqari, mehnat bozorini yanada rivojlantirish va norasmiy bandlikni qisqartirish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Korxonalarda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, motivatsiya tizimini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shuningdek, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani yaxshilash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini oshirish zarur.

Umuman olganda, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish va bandlik o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. World Development Report 2022. – Washington DC, 2022.
2. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook 2023. – Geneva, 2023.
3. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. – McGraw-Hill, 2010.
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
5. World Bank. World Development Report 2020. – Washington DC, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi materiallari. – Toshkent, 2022.
7. Samuelson P., Nordhaus W. Ekonomika. – Moskva: Vilyams, 2018.
8. Mankiw N.G. Principles of Economics. – Moskva: Piter, 2020.
9. Becker G.S. Human Capital. – Moskva: HSE, 2017.
10. Porter M. Competitive Advantage. – Moskva: Alpina Publisher, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>